



<https://doi.org/10.70728/c.series.san.v08.i07.008>

**NAQQOSHLIK SAN'ATIDA NAQSH ELEMENTLARINING  
SHAKLLANISHIDA ILK DINIY TASAVVURLARNING TA'SIRI  
(SHAMANIZM, FETISHIZM VA ANIMIZM)**

**Kurbanova Nilufar Abdumutalib qizi**

*Farg'ona shahar 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi  
nkurbanova484@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada naqsh san'ati elementlarining shakllanish jarayonida diniy tasavvurlar va diniy-falsafiy qarashlarning ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda shamanizm, totemizm va animizm kabi ibtidoiy diniy e'tiqodlarning dastlabki naqsh elementlarida aks etishi, ularning ramziy va semantik mazmuni ochib beriladi. Maqolada naqshlarning nafaqat bezak vazifasini bajarishi, balki ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarni ifodalovchi badiiy vosita sifatidagi ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** naqsh san'ati, naqsh elementlari, diniy tasavvurlar, shamanizm, totemizm, animizm, diniy-falsafiy qarashlar, ramziylik, geometrik naqsh, madaniy meros.

**THE INFLUENCE OF EARLY RELIGIOUS BELIEFS ON THE FORMATION  
OF ORNAMENTAL ELEMENTS IN ORNAMENTAL ART  
(SHAMANISM, FETISHISM, AND ANIMISM)**

**Abstract.** This article provides a scientific and theoretical analysis of the influence of religious beliefs and religious-philosophical views on the formation process of ornamental art elements. The study reveals the reflection of primitive religious beliefs such as shamanism, totemism, and animism in early ornamental elements, as well as their symbolic and semantic meanings. The article substantiates the importance of ornaments not only as decorative elements but also as artistic means expressing spiritual, moral, and educational ideas.

**Keywords:** ornamental art, ornamental elements, religious beliefs, shamanism, totemism, animism, religious-philosophical views, symbolism, geometric ornament, cultural heritage.

**ВЛИЯНИЕ РАННИХ РЕЛИГИОЗНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ НА  
ФОРМИРОВАНИЕ ОРНАМЕНТАЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В  
ОРНАМЕНТАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ  
(ШАМАНИЗМ, ФЕТИШИЗМ И АНИМИЗМ)**

**Аннотация.** В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется влияние религиозных представлений и религиозно-философских взглядов на процесс формирования элементов орнаментального искусства. В ходе исследования раскрывается отражение первобытных религиозных верований, таких как шаманизм, тотемизм и анимизм, в ранних орнаментальных элементах, а также их символическое и семантическое содержание. В статье обосновывается значение орнаментов не только как декоративного элемента, но и как художественного средства, выражающего духовно-нравственные и просветительские идеи.

**Ключевые слова:** орнаментальное искусство, элементы орнамента, религиозные представления, шаманизм, тотемизм, анимизм, религиозно-философские взгляды, символизм, геометрический орнамент, культурное наследие.

## Kirish

Naqqoshlik san'ati — xalq amaliy bezak san'atining eng qadimiy va boy tarmoqlaridan biri bo'lib, u insoniyat tafakkuri, estetik qarashlari, e'tiqodi va madaniy qadriyatlarining ramziy ifodasi sifatida yuzaga kelgan. U nafaqat buyum yoki me'moriy inshootlarni bezash vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, turmush tarzi, dunyoqarashi va badiiy tafakkurining mahsulidir. Naqqoshlikda ishlatiladigan geometrik, floral, zoomorfik, arabeska va boshqa bezak elementlari o'z taraqqiyotida turli tarixiy, diniy, siyosiy va madaniy ta'sirlar bilan boyigan, takomillashgan va muayyan milliylik kasb etgan. Naqshni to'g'ri anglash va uni "o'qiy" bilish uchun, avvalo, uning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi elementlarning ramziy ma'nolarini tushunish zarur. Qanday qilib harflar orqali so'z, so'zlardan esa mazmunli gaplar tuzilsa, naqsh ham o'ziga xos "vizual til" sifatida har bir element orqali mazmun ifoda etadi. Shunday qilib, bezak elementlari naqshning "harflari"dir — ularning har biri ramziy, estetik va madaniy yuklama kasb etadi. Ushbu elementlarning uyg'unligi, muvozanati va ma'no birligi naqsh kompozitsiyasining umumiy badiiy ifodasini belgilaydi. **“RAMZ** (arab. — ishora qilmoq)”<sup>95</sup> biror g'oya, tushuncha yoki ma'naviy mazmunni bevosita emas, balki bilvosita shaklda, belgilar, tasvirlar orqali ifodalovchi ma'naviy-tasviriy vositadir. Ramzlar inson tafakkurining chuqur qatlamlariga kirib boradi, ular orqali hayotiy haqiqatlar, diniy e'tiqodlar, urf-odatlar va falsafiy qarashlar obrazli tarzda ifodalanadi.

Naqqoshlik san'atida esa ramzlar alohida o'rin tutadi. Har bir bezak elementi — bu shunchaki chiroyli shakl emas, balki u ma'lum bir **ramziy ma'noga** ega bo'lgan badiiy ifodadir. Shunday qilib, naqqoshlikda har bir naqsh elementi o'ziga xos “ramz tili”ga ega bo'lib, bu tilni anglash orqali biz faqat san'at asarini emas, balki xalqning ma'naviy dunyosi, tarixiy tajribasi va falsafiy qarashlarini ham anglaymiz. Shu jihatdan, ramzlar nafaqat naqqoshlik san'atining estetik asosini, balki uning ma'naviy-falsafiy mazmunini ham tashkil etadi.

<sup>95</sup>ЎЗБЕКИСТОНМИЛЛИЙЭНЦИКЛОПЕДИЯСИ<sup>ХАРАФИ</sup>«Ўзбекистон миллий энциклопедияси»

Barchamizga ma'lumki, Markaziy Osiyo — bu qadimiy sivilizatsiyalar beshigi, turli xalqlarning tarixiy taqdirleri tutashgan, madaniyatlar charxi doimiy aylangan zamin. Bu mintaqada asrlar davomida Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy ko'prik bo'lib xizmat qilgan. Markaziy Osiyo xalqlari yaratgan boy madaniyat — bu zaminning yozuvsiz yodnomasi, naqshlarida qadim haqiqatlar yashiringan, ohanglarida elning yuragi urgan, me'morchilikda esa tafakkur va e'tiqod mujassam bo'lgan bebaho merosdir.

Bu madaniyat — nafaqat moddiy yodgorliklar, balki xalq og'zaki ijodi, amaliy san'at, urf-odat va marosimlar, ranglar va naqshlar, uslub va obrazlar uyg'unligidir.

Markaziy Osiyoda bugungi Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston kabi mustaqil davlatlarning shakllanishi — bu har bir xalqning uzoq tarixiy bosqichlar, murakkab ijtimoiy jarayonlar va madaniy taraqqiyot orqalibir millat sifatida o'zligini anglashga erishganyo'lidir. Bu shakllanish jarayoni birgina siyosiy chegaralar yoki davlat tuzilmalarining vujudga kelishi bilan emas, balki xalqning o'z tarixiy xotirasi, tili, urf-odatlari, badiiy tafakkuri va madaniy ifodasi orqali kechgan murakkab ijtimoiy-falsafiy holatdir.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Goyoki tabiatda niholning unib chiqishi uchunnamlik, quyosh, shamol va tuproq qanday zarur bo'lsa, millatlarning kamoloti uchun hamurushlar va bosqinlar, bunyodkorlik va ilm-fan yutuqlari, diniy-falsafiy g'oyalar, savdo yo'llari va madaniy almashinuvlar o'zigaxos o'g'it va muhit bo'lib xizmat qilgan. Bu haqidagi ma'lumotlarni Markaziy Osiyo tarixini chuqur o'rgangan UNESCO tomonidan nashr etilgan olti jildlik asarida olishimiz mumkin. Unda Markaziy Osiyo sivilizatsiyalarini — qadimgi davrdan tortib 20-asrga qadar bo'lgan madaniy, siyosiy, iqtisodiy va dini o'zgarishlarni tahlil qilingan.

Naqsh elementlarining shakllanish jarayonida qadimgi davr eng muhim bosqich sifatida ajralib turadi. Aynan shu davr naqsh san'atining asosi, boshlanish nuqtasi hamda timsoliy tafakkurning ilk ifodasi sifatida tarixda alohida o'rin egallaydi. Qadimgi naqshlar insoniyatning ramziy, falsafiy va estetik qarashlarini mujassam etib, keyingi davr bezak san'atining shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratgan.

Naqqoshlik elementlaridan biri tumor- yovuzliklardan saqlovchi element haqida so'z yuritadigan bo'lsak S.S. Bulatov, P.P. SHabaratrov, M.A. Rasulovlarning kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanmasida: "Suh qishlog'idan topilgan qora toshdan ishlangan tumor (miloddan avvalgi 2 ming yillik) toshtaroshlarning yuksak mahoratidan darak beradi: taqasimon shakl markazida bir-biriga ro'para turgan ikki ilonning boshi aniq ko'rinib turibdi; bir biriga tirmashib ketgan, ularning tanasi mustahkam asosda turgan toqi hosil qilgan. Bu tumordagi juft ilon tasviri hosildorlik va serpushtlilik, qadama «oq ko'zlar» ilonlar terisiga ola-bulalik baxsh etgan hamda ko'z tegishidan, kasalliklardan asrashga xizmat qilgan."<sup>96</sup> deya tariflangan tumor yuqoridagi fikrlarimizga bir misol bo'la oladi. Biroq san'at tarixida bunday ma'lumotlarning kam va siyrakligi tufayli, ularni to'ldirish uchun arxeologik va

---

<sup>96</sup>S.S. BULATOV, P.P. SHABARATOV, M.A. RASULOV. *Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*. Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2010. -6-7 b

etnografik ma'lumotlarga jahon tarixi va jahon dinlari tarixiga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

### **Muhokama va natijalar**

Ibtidoiy jamiyatning ilk bosqichlarida inson ongining shakllanishi bilan birga, dastlabki diniy e'tiqodlar ham vujudga kelgan. Aynan shu diniy e'tiqodlarning paydo bo'lishi bugungi kundagi ayrim naqsh elementlarining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Iso Jabborov va Sanjar Jabborov o'zlarining "Jahon dinlari tarixi" asarida bu jarayonni Kromanyon madaniyatimisolida tahlil qilarkanlar, ushbu madaniyatning miloddan avvalgi 40–20 ming yilliklarga oid bo'lib, urug'chilik tuzumining shakllanishi hamda insoniyat tafakkurida diniy tasavvurlar paydo bo'la boshlagan davri ekanini ta'kidlaydilar. Mualliflar ta'kidlashicha, Kromanyon odamlari o'liklarni turli shakllarda dafn qilishgan: yashash joyiga dafn qilib boshqa yerga ko'chib ketishgan, ba'zan jasadlarni kuydirishgan, ayrim hollarda esa maxsus qazilgan go'rlarga buklangan holda, oyoq-qo'llar bog'langan tarzda joylashtirishgan. O'lik jasadlari va kallalari qizil rangga bo'yab dafn etilgan hollari ham kuzatilgan. Shuningdek, qabrlarga bezak buyumlar, tosh qurollar, oziq-ovqat mahsulotlari qo'yilgani, jasadlar og'ir toshlar bilan bostirib ko'milgani, bu xalqda o'limdan keyingi hayot haqidagi e'tiqod mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Bu jarayonlarning o'zida magik (sehr-jodu), diniy-falsafiy tushunchalar va marosimlarning ilk shakllari mujassam bo'lgan. Qazilmalar davomida topilgan g'or devorlariga chizilgan tasvirlar, hayvon shaklidagi niqob kiygan ovchilar, turli haykalchalar va diniy marosimlarni aks ettiruvchi tasvirlar – bularning barchasi ibtidoiy inson tafakkurida diniy timsollar, ramzlar va marosimiy holatlar mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Eng e'tiborlisi, bu e'tiqodlar va diniy tasavvurlar birinchi navbatda tasviriy san'at vositasida ifoda topgan. G'or devorlariga chizilgan tasvirlar, ibodat yoki marosimga oid figuralar — bularning barchasi ibtidoiy inson tafakkurida san'atning nafaqat estetik, balki diniy-falsafiy yuklamaga ega bo'lganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ushbu asarda qayd etilishicha, tasviriy san'at asarlarida sehrGARlik marosimlarini ado etayotgan jodugarlarning tasvirlari, ular hayvon terisidan tikilgan kiyim kiygan holda aks ettirilgan g'or rasmlari, shuningdek, yarim odam – yarim hayvon ko'rinishidagi mahluqlar tasviri ibtidoiy insonlar dunyoqarashida diniy-falsafiy va mifologik tushunchalar shakllanganidan dalolat beradi.<sup>97</sup>

Bu kabi tasvirlar, shak-shubhasiz, o'sha davrdagi insonlar tafakkurida sehr, sehrGARlik amaliyotlari, tabiat kuchlari bilan bog'liq timsollar, ruhlar dunyosi va mavjudotlarning ramziy talqinlari mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Yarim hayvon – yarim inson timsollari totemik tasavvurlarning san'atda aks etgan ko'rinishi bo'lib, bu orqali inson o'zini tabiat bilan ruhiy jihatdan uzviy bog'lab ko'rgan.

Bunday obrazlar orqali diniy e'tiqodlar nafaqat shaxsiy ongda, balki ijtimoiy ong shakliga aylanib, jamoaviy marosimlar, urf-odatlar va qadriyatlar tizimida mustahkam o'rnashganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, g'or devorlaridagi sahnalarda jodugarning maxsus kiyimi, uning harakati yoki atrofdagi figurativ tasvirlar orqali ifodalangan

<sup>97</sup> Jabborov I., Jabborov S. *Jahon dinlari tarixi*. – Toshkent: "O'zbekiston", 2002. – 44–45-betlar.

vaziyatlardiniy rituallar mavjudligini, ular san‘at vositasida ongli tarzda ifoda etilganini ko‘rsatadi.

**Totemizm**-Shimoliy Amerikada yashovchi Ojibva qabilasiga mansub alkonginlar tilidan olingan bo‘lib "uning urug‘i" ma'nosini bildiradi. Totem atamasi 1791 yil Dj. Long tomonidan ilmiy muomilaga kiritilgan. XIX-XX asrlarga kelib Dj Mak Lenan, Robertson Smit Frezerlar tomonidan keng tadqiq qilingan. Bugungi kunda e'tiqodning ushbu shakli Avstraliya, Xindistonda va Afrikaning bir qator hududlarida keng tarqalgan. Etnograf olim A. Zolotaevning tarificha "totemizm – qarindoshlik munosabatlarining diniy anglashing dastlabki shaklidir"<sup>98</sup> deya totemizmga ta'rif berib o'tgan. Bundan tashqari, qadimgi jamoalar o'zlarini muayyan hayvon yoki o'simliklar bilan ajdodiy jihatdan bog'lashgan, ya'ni o'z kelib chiqishini ana shu tirik mavjudotdan boshlangan deb

tasavvur qilganlar. Ular bunday hayvon yoki o'simliklarni o'z urug'ining muqaddas ramzi — **totem** sifatida e'zozlagan. Totemizmga e'tiqod qilgan jamoalarda ushbu muqaddas mavjudotning "yordami" va himoyasiga ishonch keng tarqalgan bo'lib, ular totemlariga ta'sir o'tkazish, ularning marhamati yoki barakasini jalb etish maqsadida turli marosimlar, diniy udumlar, qo'shiqlar va ramziy raqslarni amalga oshirganlar. Bu marosimlar nafaqat diniy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lganini aytib o'tgan

Q.O.Maxkamov o'zining o'quv qo'llanmasida kenguru, tuyaqush, ayiq, sher, yo'lbars, maymun, sigir, tog' echkisi, baliq, ilon, hakka, qaldirg'och, fil, ho'kiz, ot, xoroz, burgut kiyik, mushuka kabi totemlarni yozib, "O'rta Osiyo xalqlari orasida ot, it, mushuk, laylak, mushicka, qarg'a, qaldirg'och, ilon kabi hayvon va qushlar to'g'risida turli diniy mazmundagi rivoyatlar mavjudki, bu ham totemizm qoldig'i hisoblanadi."<sup>99</sup> deya ta'rif berib o'tgan. Bugungi kunda naqshlarda ushbu hayvon va qush tasvirlarining uchrashi ularning **totemistik ma'nolardan badiiy shaklga ko'chganini** ko'rsatadi. Masalan, burgut yoki qaldirg'och naqshlarda himoya va erkinlik timsoli sifatida, ot esa kuch va yuksaklik ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu hol naqsh san'atining **semiotik tizimida** totemlardan olingan belgilar **stilizatsiya** orqali saqlanib qolganini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Naqshlarda biz nafaqat totemizm unsurlarini uchramiz balkim animizm, shomanizm va fetishizm unsurlarini ham ko'rishimiz mumkin. Naqqoshlik san'atida o'zining ramziy ma'nolari bilan keng qo'llaniladigan diniy etiqodlardan biri bu Fetishizmdir. Fetishizmga A.Nuriddin o'zining dinshunoslik o'quv qo'llanmasida quyidagicha ta'rif bergan.

Fetishizm-portugalcha «fetiko» so'zi o'zbekchada «yasalsan» degani bo'lib, fetishizm dinining mohiyatini yaqqol ifoda qiladi. Fetish, ya'ni odamlar qo'li bilan yasalgan ayrim narsa va predmetlarda sirli ilohiy kuch-qudrat mavjud, deb o'shalarga sig'inishni keltirib chiqargan. Fetishlar xilma-xil predmetlar; but, xoch, afsonaviy farishtalar, ma'budalar, avliyolarning rasmlari, haykallari payg'ambarlarning soch tolalari, kiyimlari, tumor, ko'zmunchoq, tasbeh, ayrim maqbaralar, sag'analar, qabrlar, chorvadorlar orasida hayvon kalla suyaklari, shoxlari, ko'z tikan, isiriq, do'lana kabi o'simliklar, daraxt shoxlariga

<sup>98</sup> Q.O.Maxkamov. dinshunoslik (uslubiy qo'llanma).Namangan.NamDU 2020.10-bet

<sup>99</sup> Q.O.Maxkamov. dinshunoslik (uslubiy qo'llanma).Namangan.NamDU 2020.11-bet

bog‘langan alaf deyiladigan turli rangdagi lattalar; Tavrot, Injil, Qur'on, Hadis

kabi mukaddas kitoblar bo‘lishi mumkin.<sup>100</sup> Naqqoshlik san‘atida qadimiy marosimiy tasvirlardan meros bo‘lib kelgan elementlar bugungi kunda ham uchrab turadi. Masalan, qirg‘iz va qozoq xalqlarining bezak san‘ati tizimida asosan hayvonot olamiga oid ramzlarning ko‘plab ishlatiladi. Xususan, qozoq xalqining kuch-qudrat va barqarorlik timsoli sifatida “qo‘chqor mo‘yiz” (qo‘chqor shoxi) ornamentini keng qo‘llashi bunga yorqin misol bo‘la oladi.

O‘zbek xalqining naqqoshlik an‘analarida esa o‘simliksimon naqsh elementlari alohida o‘rin tutadi. Shulardan biri — qalampir tasviri bo‘lib, u erkaklar milliy bosh kiyimlari bezagida tez-tez uchraydi. Qalampir ramzi qadimdan “yomon ko‘zdan saqllovchi” himoya belgisi sifatida talqin qilingan va marosimiy-madaniy mazmunga ega bo‘lgan.

### **Xulosa.**

Diniy e‘tiqodlarning tasvirlari dastlab faqat diniy-ma‘rifiy yoki marosimiy maqsadlarda ishlatilgan bo‘lsa-da, tarixiy jarayon davomida ular kundalik hayotga integratsiyalashgan. Bosh kiyim, taqinchoqlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari va turli maishiy predmetlarga o‘tishi natijasida bu tasvirlar nafaqat diniy ramz sifatida, balki funksional va estetik bezak vositasi sifatida shakllangan. Shu tariqa diniy ramzlar va totemik, shamanik, animistik tasvirlar maishiy hayotning ajralmas qismiga aylangan. Bugungi kunda esa bu elementlar mustaqil badiiy vosita sifatida rivojlanib, naqqoshlik san‘ati tizimida keng qo‘llanilmoqda va ular orqali qadimiy e‘tiqodlarning ramziy ma‘nosi va madaniy merosi saqlanib qolgan. Bu jarayon, shuningdek, insonning diniy-falsafiy tafakkuri bilan san‘at orqali kundalik hayotini uyg‘unlashtirishga bo‘lgan intilishini ko‘rsatadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. **ЎЗБЕКИСТОНМИЛЛИЙЭНЦИКЛОПЕДИЯСИ** **ХАҲАРАФИ** «Ўзбекистонмиллийэнциклопедияси» ДавлатилмийнашриётиТОШКЕНТ -59 b
2. S.S. BULATOV, P.P. SHABARATOV, M.A. RASULOV. *Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*. Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2010. -6-7 b
3. Jabborov I., Jabborov S. *Jahon dinlari tarixi*. – Toshkent: “Ozbekiston”,.
4. Q.O.Maxkamov. *dinshunoslik (uslubiy qo‘llanma)*. Namangan. NamDU 2020.
5. A.Nuriddinov. *Falsafa. II-modul. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma*. namangan -2024

---

<sup>100</sup> A.Nuriddinov. *Falsafa. II-modul. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma*. namangan -2024